




JOURNAL OF GEOGRAPHY AND NATURAL RESOURCES

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

THE ROLE OF WASTES RELEASED FROM GRAIN PRODUCTION ENTERPRISES IN THE ORIGIN OF RESPIRATORY TRACT DISEASES

N. A. Jorabayeva

Master's student

Samarkand State University named after Sh. Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

E. E. Kabilov

Doctor of medical sciences, professor

Samarkand State University named after Sh. Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

E-mail: kobilov.1961@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: ecology, disease, environment, waste, human health, grain, production, organic compounds.

Received: 12.12.22**Accepted:** 14.12.22**Published:** 16.12.22

Abstract: There is a correlation between unfavorable environmental conditions and population morbidity. Harmful dust and gases released into the atmosphere by industrial enterprises lead to an increase in short-term (acute respiratory) and long-term (chronic) diseases of the human respiratory tract.

NAFAS YO‘LLARI KASALLIKLARINING KELIB CHIQISHIDA DON MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDAN AJRALIB CHIQUADIGAN CHIQUINDILARNING ROLI

N. A. Jo‘raboyeva

Magistrant

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O‘zbekiston

E. E. Qobilov

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O‘zbekiston

E-mail: kobilov.1961@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ekologiya, kasallik, atrof-muhit, chiqindi, inson salomatligi, don, ishlab chiqarish, organik birikmalar.

Annotatsiya: Noqulay ekologik muhit bilan aholi kasallanish darajasi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. Ishlab chiqarish korxonalarining atmosfera havosiga

chiqaradigan zararli chang va gazlari inson nafas yo'llarining qisqa muddatli (o'tkir respiratorli) va uzoq muddatli ta'sir etuvchi (surunkali) kasalliklarning ko'payishiga olib keladi.

ТЕКСТ НАУЧНОЙ РАБОТЫ НА ТЕМУ «РОЛЬ ОТХОДОВ ЗЕРНОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В ВОЗНИКНОВЕНИИ ЗАБОЛЕВАНИЙ ОРГАНОВ ДЫХАНИЯ»

Н. А. Жорабоева

студент магистратуры

Самаркандский государственный университет имени Ш. Рашидова

Самарканд, Узбекистан

Э. Э. Кабилов

доктор медицинских наук, профессор

Самаркандский государственный университет имени Ш. Рашидова

Самарканд, Узбекистан

E-mail: kobilov.1961@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экология, болезни, окружающая среда, отходы, здоровье человека, зерно, производство, органические соединения.

Аннотация: Существует корреляция между неблагоприятными экологическими условиями и заболеваемостью населения. Вредные пыль и газы, выбрасываемые в атмосферу промышленными предприятиями, приводят к увеличению кратковременных (острых респираторных) и длительных (хронических) заболеваний дыхательных путей человека.

KIRISH

Ma'lumki, so'nggi davrda jahon miqyosida va jumladan mamlakatimizda ham chiqindilar hajmining ortishi turlari bo'yicha nafaqat Ona tabiatga, balki shu bilan birga uning ajralmas va yetuk vakili bo'lmish inson salomatligiga ham jiddiy tahdid solmoqda. Shuningdek, bunday hol yosh bolalar, o'rta yosh, xotin-qizlarimiz va hatto nuroniy keksalarimiz misolida ham turli xastaliklarning tarqalishiga sabab bo'lishidan tashqari uning ortida har yili oila va Davlat byudjeti mablag'larining yerga sovrilishiga sabab bo'lmoqda [1, 2-5 b].

ASOSIY QISM

Atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilaridan muhofaza qilish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish muammolari bilan uzviy bog'liqdir. Ko'p asrlar davomida chiqindilarni noto'g'ri boshqarish tabiiy resurslar o'zgarishiga, tabiat hodisalarining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Bu chiqindilarning 80 foizini organik moddalar tashkil qiladi va ularni qayta ishlash natijasida katta miqdordagi energiya va energiya tashuvchilarni ishlab chiqarish mumkin. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi uning 85 foizini qayta ishlash mumkinligini ko'rsatmoqda.

Chiqindilarni qayta ishlash elektr energiyasi va suvdan foydalanishni bir necha barobarga kamaytiradi. Masalan, makalaturadan qog'oz olish nafaqat daraxtlarning kesilishini kamaytiradi, balki elektr quvvatining sarfini to'rt dan uch qismga qisqartiradi. Bir tonna qog'ozni qayta ishlab chiqarishga uni yog'ochdan tayyorlash uchun ketadigan suvning yarmi sarf bo'ladi. [2, 2-3 b].

Tobora ko'payib borayotgan elektron chiqindilar ham insoniyatga xavf solmoqda. Har yili yer yuzida 2 million tonnaga yaqin elektron chiqindi paydo bo'lmoqda. Misol uchun, birgina mobil aloqa vositasi 500 tadan 1000 tagacha turli qismlardan tashkil topgan. Ularning ko'pchiligi zaharli og'ir metallar – qo'rg'oshin, simob, kadmiy va boshqa xavfli kimyoviy moddalarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini himoyalash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan izchil ekologik siyosat yuritilmoqda. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha muhim huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. [3, 77-80 b].

Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi 15 dan ziyod qonun, tabiiy resurslarning ayrim turlaridan foydalanish mexanizmlari va shartlari, shuningdek, davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish, turli toifadagi qo'riqlanadigan hududlarni tashkil qilish va ularda alohida foydalanish rejimini o'rnatish tartib-taomillari va boshqa masalalarni belgilab bergan 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 21 apreldagi «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni hamda «2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bu boradagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda. Farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning hududiy boshqarmalarida chiqindilarning hosil bo'lishi, ularni to'plash, saqlash, tashib ketish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish va realizatsiya qilish bo'yicha nazorat inspeksiyalari tashkil etilgan. [4, 362-363 b].

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki bunday holat mintaqalar misolida va masalan Samarqand viloyati sharoitida ham yaqqol kuzatish mumkin. Negaki, keying 4-5 yil ichida sanoatning o'sishi darajasi va ularning ishlab chiqarish quvvati tezkorlik bilan rivojlanayotgan bir paytda afsuski, atrof-muhitga chiqarilayotgan chiqindilar salmog'i ham ortib bormoqda va bunga birgina Jomboy tumani hududini keltirish mumkin. Ushbu mavzuda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdan tortib oziq-ovqat, qurilish, mayishiy soha korxonalari faoliyat olib boradi. Tabiiyki bularda mayishiy chiqindilar (qog'oz, plastik idishlar, shisha, rezina, polietilin materiallar hatto metal hamda boshqa ikkilamchi chiqindilar tashkil etadi. Bundan tashqari

shifoxona aholiga xizmat ko'rsatuvchi dori darmon sanoati shaxobchalari, yoqilg'i moylash materiallari, gaz sanoati chiqindilari va boshqalar ham hajm jihatidan ham ortib bormoqda.

Umuman olganda ularning oqimi (maishiy chiqindilarga qaraganda) yiliga nisbatan 125 ming tonnani tashkil etadi. Biroq, bu chiqindilar infektsiya, kasallik va atrof-muhitni ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi vaqtda 2019-yilgi Covid-19 pandemiyasi paytida ularning soni, shubhasiz, bir necha o'n ming tonnaga ko'paygan. Umuman olganda, ular infektsiyaning tarqalishi xavfini keltirib chiqaradi, epidemiologik vaziyatni yomonlashtiradi va atrof-muhitning doimiy ifloslanishiga olib keladi. 1979-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tibbiy chiqindilarni xavfli deb tasniflagan va ularni qayta ishlash bo'yicha maxsus xizmatlarni yaratish zarurligini ko'rsatgan. 1992-yilda Bazel konvensiyasiga binoan (Shveytsariya) 45 turdagi xavfli chiqindilar ajratildi, ularning ro'yxati klinik chiqindilar tomonidan yig'iladi. O'zbekistonda tibbiy chiqindilarni boshqarish muammolari, shu jumladan yig'ish, saralash, zararsizlantirish, tashish va qayta ishlash tizimi sxemalari va metodikalarini ishlab chiqish bosqichida. Ta'kidlash joizki, faqat 2007 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 3406 chiqindilarni yoqish moslamalari mavjud bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan sil kasalxonalaridan faqat ikkitasi Toshkent va Nukusda kuydirish pechlari bilan ta'minlangan. Xuddi shu davrda, ya'ni. 2004-yildan 2007-yilgacha Samarqand viloyatida 335-432 birlik muffil pechlari bilan 101,2 – 119,8 tonna tibbiy chiqindilar olib tashlandi.

Hozirgi kunga qadar 6 ta tibbiy shifoxonada (shifoxonadan Samarqandda mavjud 20 ta) tibbiy chiqindilarni ishlab chiqarish va yo'q qilish bo'yicha tahlillar o'tkazilib, ular tibbiy muffle pechlarida 1200°C da yoqib yuborilgan.

Yuqoridagilarni hisobga olib biz o'z tadqiqotlarimizda birgina Jomboy don korxonasi misolida uning faoliyati bilan bog'liq chiqindi turlari, ularning miqdori va bu bilan bog'liq mavzeda yashovchi aholining yashash tarzi hamda salomatligiga ta'sirini o'rgandik.

Jomboy don korxonasi faoliyati bo'yicha olib borilgan tahlillarimiz (2020-2022 yy) shuni ko'rsatdiki, korxonada 18 turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilib ular tegishli sinflarga bo'linadi. Uning umumiy maydoni 10,88 gektar bo'lib shundan, ishlab chiqarish sexlari 3,1 gektarni egallaydi. Korxonaning bosh maqsadi don yetishtiruvchilardan mahsulotlarni qabul qilish va qayta ishlab chiqarishga moslashgan. Ularda sinflar bo'yicha turli zararli yirik 41ac hang g'ubor massasigacha bo'lgan chiqindilar ajralib chiqadi. Bunda birgina tegirmon sexida sutkasiga 4900 tonna un va 3200 tonna omuxta yem ishlab chiqarish jarayonida chiqindilar chiqariladi. Natijada, ular muayyan darajada inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zararli gazlar va chang zarralari boshqa ifloslantiruvchi moddalar, ya'ni oltingugurt 2-oksidi va azot oksidi bilan yuzaga keladi va kimyoviy jihatdan o'zgarib, nitrat va sulfatlar hosil qiladi. Bu o'z navbatida aholi orasida o'pkaga kirib borib, yuqori nafas yo'llari kasalliklarini keltirib chiqaradi. Ushbu korxonada havo tozalagich

moslamalarining sozligi hamda kerakli filtrlarni oʻrnatish va takomillashtirish orqali kasalliklarni kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

XULOSA

Taʼkidlash joizki bunday holat masalan korxonaning oʻzida shovqin kuchining meyyoriga nisbatan yuqori detsibalda boʻlishi ham kuzatildi. Misol uchun texnikalarni yuvish shaxobchalarida maksimal darajada 92,8 minimal darajada 90,6 boʻlgani holda, yanchish xonasida esa bir muncha yuqori boʻlishi kuzatildi.

Shunday qilib yuqoridagi tadqiqotlarimizga olib borilgan natijalariga koʻra quyidagicha asosiy xulosalarni qilishga imkon beradi:

1. Samarqand viloyati Jomboy tumani sharoitida sanoat korxonalarining faoliyati natijasida atrof-muhitga chiqindilarning chiqarilishi muayyan darajada ushbu hududda istiqomat qilayotgan aholi shuningdek Jomboy don korxonasida mahsulot ishlab chiqaruvchilarning hayot faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

2. Hudduda yashovchi aholi oʻrtasida texnika vositalarining shovqioni shuningdek don mahsulotlarini qayta ishlashda hosil boʻladigan turli chiqindilar aholi oʻrtasida nafas olish yoʻllari, olʻpka yalligʻlanishi, oʻtkir bronxit, allergik va bronxial astma va boshqa xastaliklarning tarqalishi hamda kuchayishiga sabab boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2009-2028 yillar davrida Oʻzbekiston respublikasida qattiq mayishiy chiqindilar bilan bogʻliq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi” qarori, 2-5 betlar.

2. Z.Saidmurodova., A.Rajabov. Sanoat korxonalari keltirib chiqarayotgan ekologik xavf va ularning chiqindilaridan oqilona foydalanish istiqbollari. <http://oldconf.neasmo.org.ua/node/2614>

3. Sh.Shirinbayev., M.Safin. Atrof-muhitni muhofaza qilish. Samarqand, SamDCHTI, 2003. 77-80 betlar.

4. Z.I.Izzatullayev., Gʻ.Dilmurodov. Tibbiy chiqindilar va ularning atrof-muhitga taʼsirini oʻrganish (Samarqand shahri misolida). Multidisciplinary Scientific Journal 3 son mart 2022. 362-363 betlar.

5. <https://www.standart.uz/ru/news/view?id=1018>